

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

/SH.SHaripov

2018 yil “28”

2018 yil “26”

Ro‘yhatga olindi: BD -5111700-2.02

2018 - yil “18”

UMUMIY PEDAGOGIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi	100000 -	Gumanitar
Ta‘lim sohasi:	110000 -	Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishlari:	5111700 -	Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "13" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "05" 08 dagi 744 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Abdurahimova D.A. Nizomiy nomidagi TDPU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida dotsenti, p.f.n.

Taqrizchilar:

Soliyeva Z.T.

Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrasida p.f.d., dotsent

Raximov B.

Guliston Davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil "23" 06 dagi 11-sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Har qanday mamlakatning kuchi uning fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi.

Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, Pedagogika ham fan sifatida shakllanib, o'zining predmetiga ega bo'ldi. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi.

Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Ushbu umumiy pedagogika fanidan tuzilgan dasturning tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan mavzular o'z mazmuni va yo'nalishiga ko'ra "Pedagogikaning ilmiy asoslari", "Yagona pedagogik jarayon", "Ta'lim tizimini tashkil etish" hamda "Korreksion (maxsus) pedagogika" kabi bo'limlar o'rin olgan. Bo'limlarda o'z ifodasini topgan mavzularni ochib berishda g'oyalar o'rtasidagi o'zaro izchillik va mantiqiylikning ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Mavzularning bayonida maqsadga muvofiq ravishda Sharq mutafakkirlarining qarashlari, xalq pedagogikasi asoslaridan foydalanish barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni pedagogika fanining tarixiy taraqqiyoti, rivojlanish tendensiyalari, ta'limning innovatsion usullaridan foydalanish, dunyo va jahon pedagogikasi yangiliklaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or va zamonaviy axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalarini tadbiq qilish va amalga oshirishga tayyorlash, pedagogik madaniyatni tarkib toptirish.

Fanning vazifasi – talabalarning Ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash, ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash, ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish, pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish, ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish, o'qitish hamda tarbiyalash jarayonining

samarali texnologiyalarini yaratish, oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etishga tayyorlashdan iborat.

“Umumiy pedagogika” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida.

Talaba:

- O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli;
- ta‘lim va tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, birligi, differentsiatsiyasi, yagona pedagogik jarayon;
- XXI asr pedagogi obrazi;
- pedagogik antropologiya;
- ta‘lim nazariyasi (didaktika) ning asosiy komponentlari: konsepsiyalari, paradigmatlari;
- ta‘lim prinsiplari;
- ta‘lim metodlari, texnologiyalari;
- ta‘lim turlari va bosqichlari;
- ta‘limni tashxis qilish;
- tarbiya nazariyasining mohiyati;
- tarbiyaning mazmuni, prinsiplari;
- tarbiyada muhit (sotsium), ruhiyat (psixologiya);
- tarbiya metodlari va texnologiyalari;
- maxsus pedagogikaning o‘ziga xos xususiyatlari;
- tarbiya turlari;
- jamoada, oiladagi tarbiya hamda o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari;
- O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi;
- ta‘limni boshqarish shakllari;
- shaxsga ta‘lim va tarbiya berish g‘oyasining paydo bo‘lishi;
- ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari;
- tarbiya, maktab va pedagogik fikrning taraqqiy etish tarixi;
- jahon pedagogik jarayoni;
- O‘zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini;
- pedagogik fikr tarixida mahorat masalalari;
- pedagogik qobiliyat, uning turlari;
- pedagogning kommunikativ qobiliyati, uning vositalari;
- pedagogning muloqot madaniyati va psixologiyasi;
- pedagog va ta‘lim oluvchi o‘rtasidagi muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari;
- pedagogik nazorat va odob-axloq me‘yorlari;
- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari;

- ta'lim jarayonidagi pedagogning mahorati;
- pedagog mahoratini takomillashtirish shart-sharoitlari *bilimga*;
- ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish;
- o'z pedagogik faoliyatini rejalashtirish;
- ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llash;
- o'quvchini rag'batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste'dodi, iqtidorini ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
- o'quvchilar bilimini baholash;
- ota-onalar, jamoa, o'quvchilar bilan yakka va guruh bo'lib ishlash;
- o'quvchilar guruhlarini boshqarish;
- tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish;
- ta'lim va tarbiya jarayonida talab kilingan irodani namoyish qilish, sabr-toqat, qat'iyat, kayfiyatni o'zgartira olish, javobgarlikni his qilish;
- yuz bergan noxush vaziyatdan chiqib keta olish *ko'nikma*;
- pedagogik jarayonda har qanday nizolarning oldini olish;
- o'z xatti-harakatlarini boshqara olish va bunda go'zallikka erishish;
- o'z pedagogik nazokati va odobini takomillashtirib borish;
- nazokat bilan so'zlash texnikasiga rioya qilish;
- ta'lim va tarbiya jarayonida san'atkorlik unsurlaridan foydalanish;
- o'z mehnatini rasmiy va ijodiy tashkil eta olish: vaqtdan unumli foydalanish;
- o'z mahoratini tinmay oshirib borish;
- ilg'or tajribalarni o'z faoliyatiga singdirish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Pedagogika fan sifatida.

1-Mavzu. Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obyekti, metodlari.

„Ta'lim to'g'risida Qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta'lim. Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlari va boshqa fanlar aloqasi. Pedagogik antropologiya. Shaxs haqida tushuncha. Xorijiy mamlakatlarda boshlang' ta'lim-tarbiya tizimi yuzasidan qisqacha izoh.

2-Mavzu. Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar muhit, irsiyat, ta'lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishning yosh va individual

xususiyatlari. Yosh bosqichlari. Akseleratsia rivojlanishning turli tumanligi individualligi

2-Modul. Didaktika -asoslari.

3-Mavzu. Didaktikaning maqsad va vazifalari.

Didaktikaning ijtimoiy va fiziologik asoslari. Turli tarixiy davrlarda didaktik tizimlarning rivojlanishi. O'rta asr didaktikasi. XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida didaktikaning rivojlanishi. O'rta Osiyoda jadidchilarning ta'limni yangilashdagi o'rni hamda ularning ta'limni tashkil etishdagi qarashlari. (M.Qori Abdurashidxonov, A.Fitrat, S.Mirjalilov, A.Avloniy). Ta'lim tizimlari va innovatsion g'oyalari (D.Dyui, U.Kilpatrik, I.Gerbert, M.Montessori, F Fryobel). Ta'limning psixologik asoslari. Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlash va aqliy rivojlanishning xususiyatlari. Ta'limning rivojlanish yo'nalishlari: uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, texnologiya ta'lim paradigmalari.

4-Mavzu. Ta'lim mazmuni.

Ta'limning maqsad va vazifalari. Ta'lim mazmunini tuzilishi. Ta'lim metodlari va vositalari. Ta'lim metodlari haqida umumiy tushuncha. O'quv materialini og'zaki bayon qilish usuli: Hikoya, ma'rza, suhbat, darslik hamda boshqa o'quv adabiyotlari bilan ishlash va h.k. Ko'rgazmalilik metodi: tasviriy, o'quv materiallarini namoyish qilish, ramziy va sxematik tasvirish materiallar, xaritalar, chizmalar, diagrammalar va h.k. Amaliy mashg'ulotlar metodi: mashq qildirish metodi, laboratoriya mashg'ulotlari metodi, amaliy mashqlar metodi va h.k. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar. rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar. O'qitish texnik vositalarining asosiy turlari va ularning xarakteristikasi. Boshlang'ich ta'lim tizimida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishning psixologik va pedagogik asoslari. qo'shimcha vositalari. O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari.

5-Mavzu. Ta'limni tashkil etish shakllari.

Zamonaviy ta'limga asosimiy yondoshuvlar. Rivojlantiruvchi ta'lim. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim) va shakllarining tavsifi. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma - xil turlari. Innovatsion, masofaviy ta'lim. *Ta'limni tashkil etish shakllari.* individual; individual – guruhli; sinf – dars; ma'ruza – seminarli; sinfdan tashqari; auditoriyadan tashqari; maktab va maktabdan tashqari. Darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar. Darsning maqsadi va vazifalari. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi. Sharq allomalarining ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari.

6-Mavzu. Ta'limni tashxislash.

Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yilgan talablar. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli. Boshlang'ich ta'limda baholash mezonlari.

7-Mavzu. Tarbiya jarayoning mazmuni va mohiyati.

Tarbiya nazariyasining mohiyati. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi ekanligi. Tarbiya nazariyasi Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalari. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni sifatida.. Tarbiya jarayonining natijasi.

3-Modul. Tarbiya va uning turlari.

8-Mavzu. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari.

Axloqiy tarbiyani tashkil etish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, axloqiy me'yorlar, axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish. Aqliy tarbiya, tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashni rivojlantirish. Jismoniy tarbiya. Jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda va xarakterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish. Ekologik tarbiya. O'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish.

Iqtisodiy tarbiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga ilk iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamalakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalarga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod qilingan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish.

Huquqiy tarbiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat Konstitutsiyasi,

davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish, ular ogiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni singdirish, huquqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish.

G'oyaviy-siyosiy tarbiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quvchilarga ilk siyosiy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

9-mavzu. Tarbiyaning umumiy metodlari.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Boshlang'ich ta'limda tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari.

4-Modul. Pedagogika tarixi fan sifatida.

10-mavzu. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Pedagogika tarixi fanining predmeti, vazifasi va metodologik asosi. Eng qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti yodgorliklarida inson tarbiyasiga oid fikrlar. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.

11-mavzu. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya mazmuni. Hadis ilmiyning paydo bo'lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy va Imom at-Termiziyning hadis ilmi rivojidadagi xizmatlari. So'fiylik ta'limoti. Ahmad Yassaviy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri.

12-mavzu. Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.

Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan va madaniyat. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari. Abu Nasr Forobiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning ta'limiy-axloqiy qarashlari

13- mavzu. Sharq pedagogik ta'limotida ta'limiy-axloqiy qarashlar. Ta'limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo'lishi. Yusuf Xos Hojib, Unsurul Maoliy Kaykovus "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq", Muslihiddin Sa'diy. "Guliston".

14- mavzu. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnaxrda tarbiya va maktab.

XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti. Sohibqiron Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek. Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayi Void Koshifiy asarlarida ta'lim-tarbiya masalarining ilgari surilishi.

15-mavzu. XVII asrdan XX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

Turkiston o'lkasida diniy-islomiy tarbiya muassasalari va pedagogik fikr taraqqiyoti. Turkistonda jadidchilik harakati va ta'lim-tarbiya. Mahmudxo'ja Behbudiy. Munavvar qori Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.

16-mavzu. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimi. Yaponiyada ta'lim tizimi. Janubiy Koreyada ta'lim tizimi. Fransiyada ta'lim tizimi. Germaniyada ta'lim tizimi. O'zbekiston ta'lim tizimi va Hamkorlik yo'nalishlari.

5-modul. Ijtimoiy pedagogika

17-mavzu. Ijtimoiy pedagogika faoliyat pedagogika fani sohasi sifatida. Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari. Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari. Ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

18-mavzu. Ijtimoylashuv omillari va mexanizmlari.

Shaxsni o'zini boshqarish mexanizmlari. Ta'lim-tarbiya bola (o'quvchi) shaxsni ijtimoylashtirish omili sifatida. Bola (o'quvchi) shaxsning ijtimoiy sifatleri. Bola (o'quvchi) shaxsning ijtimoylashuvi masala yuzasidan muammoli vaziyat.

19-mavzu. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Vasiylik va homiylik. Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan oila turlari. Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari. Yetimlikning kelib chiqishi sabablari. Vasiylik va homiylik tushunchasi. Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

20-mavzu. Deviant xulq – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.

Me'yor va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif. Me'yordan og'ish turlari.

Deviatsiya turlari. O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari.

21-mavzu. Jinoyatchilik bolalarda g'ayriqonuniy hati-xaraktning namoyen bo'lishi shakli sifatida.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchilik muammosi.Voyaga yetmagan xuquq buzarlari uchun maxsus o'quv tarbiya muassasalari.Voyaga yetmagan xuquq buzarlari bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

6-modul. Pedagogik mahorat fanning umumiy asoslari

22-mavzu. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati.

O'qituvchi mehnati, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati. Mustaqil O'zbekiston sharoitida „Ta'lim to'g'risida“gi Qonun va Kadrlar tayorlash milliy dasturi “ da o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

22-mavzu. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari

Eng qadimgi davrlardan XII asrgacha bo'lgan davrlarda o'qituvchi – ustoz, shogird va ularning jamiyatdagi o'rni, mahorat haqidagi nazariyalar. Sharq donishmandlari va mutafakkirlaridan Kaykovus, Al-Xorazmiy, A.Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, M.Ulug'bek, A.Navoiy va boshqalarning ijodiy meroslarida mudarrisni tanlash, ularga qo'yiladigan talablar.

23-mavzu. Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning psixologik-pedagogik tasnifi.

Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. Empatiya va perseptiv qobiliyatlar. O'qituvchining irodasi, sabr-toqat, maqsadga intilish, o'z maqsadiga intilish, o'z maqsadiga erishishiga, ahdigacha qat'iy ishonch, o'z-o'zini idora qilish va boshqacha ta'sir o'tkazish qobiliyati; his-tuyg'usi, kayfiyatini boshqara olishi, o'z zimmasiga javobgarlikni o'z bilishi, o'zida ijobiy holatni tashkil eta olish va boshqa qobiliyatlar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisida shakllanishi va rivojlanishi zarur bo'lgan tashkilotchilik, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari.

24-mavzu. Muloqot pedagogik mahoratning namoyen bo'lishidir

Ta'limda turli xildagi muloqotni tashkil etishda milliy madaniy asoslar va umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi Sharqona tarbiya va uning muloqotga ta'siri. Muloqotga kirishishda o'zbek urf -odatlarini, rasm-rusum va udumlar, ular haqidagi afsona, rivoyat, hikmatlardan foydalanish va boshlang'ich ta'lim tizimida ularni tatbiq etish usullari. Milliy madaniyatning muloqotga ta'siri.

25-mavzu. Pedagogik nazokat va pedagogik odob-axloq

Pedagogik nazokat masalalarining tarixiy taraqqiyoti. Pedagogik nazokatning vazifasi.Pedagogik nazokatning me'yorlari: ixtisos sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisosga doir vijdon va izzat- nafs, pedagogik oriyat.

26-mavzu. Pedagogik texnika haqida tushuncha

Pedagogik texnikani shakllantirish uslublari. Pedagogik texnika vositasi – verbal va nonverbal kommunikatsiya. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari: O‘qituvchining o‘z xulqini, xatti-harakatlari, fe‘l-atvorini boshqara olish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmasi; ijtimoiy- pertseptiv qobiliyati, nutq texnikasi.

27-mavzu. Pedagogik faoliyatda uchraydigan qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar

Pedagogik jamoa, o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi, o‘qituvchilar va ot-onalar jamoasi o‘rtasida uchraydigan nizolar, ularni oldini olishda o‘qituvchining pedagogik odobi, madaniyati va pedagogik bilimi.

IV. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yiha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Pedagogikaning umumiy asoslari
2. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati.
4. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining vazifalari
Pedagogning kasbiy fazilatlarini. Pedagogik mahorat. Pedagoglik faoliyatida ijodkorlik. Psixologik -pedagogik bilimlar integratsiyasi. Ta‘lim tizimi boshqaruvi. .
5. Didaktika – ta‘lim nazariyasi sifatida.
6. Ta‘lim jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta‘lim tamoyillari.
7. Ta‘lim metodlari va vositalari.
8. Ta‘limni tashkil etish turlari va shakllari.
9. Ta‘limni tashhis etish.
10. Tarbiya jarayoni mohiyati va mazmuni.
11. Bolalar tarbiya jamoasi va yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.
12. Tarbiyaning umumiy metodlari.
13. Oilada tarbiya asoslari.
14. Milliy aksiologiya va undan boshlang‘ich ta‘lim tizimida foydalanish imkoniyatlari.
15. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o‘quvchilarni aqliy tarbiyalash.
16. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili.
17. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari.
18. Mehnat va iqtisod tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari.
19. Nafosat va ekologik tarbiya haqida tushuncha.
20. Jismoniy tarbiya haqida tushuncha.
21. Maktabni boshqarish va unga rahbarlik qilishning qonun qoidalari
22. Maktab hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish

23. Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

24. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

25. Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi

26. Sharq pedagogik ta'limotida ta'limiy-axloqiy qarashlar.

27. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnaxrda tarbiya va maktab

28. XVII asrdan XX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji

29. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

30. Pedagogik mahorat fanining umumiy asoslari.

31. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari

32. Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning psixologik - pedagogik tasnifi

33. Turli xildagi muloqotni tashkil etishda milliy madaniy asoslar va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi

34. Pedagogik texnika haqida tushuncha

35. Dars jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanishda o'qituvchining mahorati va ijodkorligi

36. Korreksion (maxsus) pedagogika

37. Ijtimoiy pedagogika qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

38. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika fanining rivojlanish shart-sharoitlari

39. Ijtimoiylashuv ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida

40. Oila maxalla bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

41. Maktab yoshidagi bolalar bilan olib boradigan faoliyati.

42. Pedagogik amaliyotni tashkil etishning shakli va mazmuni

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati.

2. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifasi, ilmiy tadqiqot metodlari.

3. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. tarbiya maqsadi va vazifalari.

4. Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida. Ta'lim paradigmalari

5. Ta'lim jarayoni yagona pedagogik tizim sifatida. Ta'lim tamoyillari.

6. Ta'lim metodlari va vositalari. Ta'limni tashhis etish.

7. Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari. Dars - ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.

8. Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, tarbiya tamoyillari va metodlari.

9. O'quvchilar jamoasi - yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.

10. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyalash.

11. Fuqarolik tarbiyasi. O'quvchilarning yuksak ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi.

12. O'zbekiston respublikasi ta'lim tizimi. (ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillar.

13. Pedagogika tarixi kursiga kirish. eng kadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim - tarbiya va pedagogik fikrlar.
14. Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikr taraqqiyoti (Al-Xorazmiy, al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning ta'lim -tarbiyaga oid qarashlari.
15. XIV-XVI asrlarda movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.
16. XIV-XVI asrlarda movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.
17. XVII-XIX asrning birinchi yarmida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.
18. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ta'lim va pedagogik fikrlar (Anbar otin, Furqat, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniylarning ta'lim-tarbiya taraqqiyotida tutgan o'rnini) .
19. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim va pedagogik fikr taraqqiyoti.
20. Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi bayoni. Yan Amos Komenskiyning pedagogik sistemasi.
21. Rus pedagog olimlari va ularning pedagogik g'oyalari. K.D.Ushinskiyning pedagogik nazariyasi va didaktik ta'limoti.
22. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi.
23. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.
24. Bolalar tarbiya jamoasi – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.
25. Nafosat tarbiyas.Uning maqsad va vazifalari.
26. Mehnat tarbiyasi. Uning maqsad va vazifalari.
27. Oilada tarbiya asoslari.
28. Pedagogik faoliyatda tarbiya turlari va usularidan foydalanish imkoniyatlari.
29. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishning maqsad va vazifalari.
30. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafosat tarbiyasini berishda pedagogik etika.
31. Maktab hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish.
32. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitilish jarayonida sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish.(o'qish va odobnoma darslari misolida).
33. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitilish jarayonida sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish.(atrofimizdagi olam va matematika darslari misolida)
34. A.Navoiyning "Mahub- ul- qulub" asarining pedagogik tahlili.
35. A.Avloniyning pedagogik qarashlari.
36. Pedagogik masala va vaziyatlarni echishda kasbga oid bilimlardan foydalanish.
37. Pedagogik kasbi haqida sharq va g'arb olimlarining qonuniyatlaridan foydalanish.
38. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda muloqatga kirishishinini rivojlantirish.
39. O'quv materialini didaktik jihatdan qayta ishlay olishni shakllantirish.
40. Dars jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanishda o'kituvchining mahorati va ijodkorligi.

VI. Asosiy va qo'shimha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.
2. Michael Uljens.School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.

3. John Dewey, How we think (1910). Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003) Columbia University Press. Gutek Gerald L. (2009) New Perspectives on Philosophy and Education. Pearson Education Inc.
4. R.A. Mavlonova, O. To'rayeva, K.M. Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik T.: O'qituvchi 2008-yil
5. R.A. Mavlonova, N.H. Vohidova, N.H. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil
6. K. Xoshimov, S. Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi 2010-yil
7. R.A. Mavlonova, N.H. Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2009-yil

Qo'shimcha adabiyotlar:

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
10. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son, 70-modda.
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.
12. R.A. Mavlonova, D. Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma T.: Fan va texnologiya 2012-yil
13. S. Nishonova, M. Imomova, R. Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik T.: O'qituvchi 1996-yil
14. M. Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T.: O'qituvchi. 2004-yil
15. N. Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKNT.: 2009-yil.
16. A. Qaldybasva «Педагогика теориясь». T.: 2007.

Internet saytlari

17. <http://Ziyonet.uz>
18. <http://edu.uz>
19. www.nadlib.uz
20. <http://teoriya.ru>